Mohinur Pulatova Rustamjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat instituti 3-bosqich talabasi
mohinurpulatova12@gmail.com

SHUKRULLO YUSUPOVNING „KAFANSIZ KO‘MILGANLAR’’ ASARIDAGI HAQIQATLAR TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shukrullo Yusupovning „Kafansiz ko‘milganlar" nomli avtobiografik asarida yuz bergan voqealarning realligi, qamoqxona va lagerda mahbuslarga qilingan qiynoqlar, o‘zining azob-uqubatlari orqali tarixda nom qozongan urushning daxshatli sinovlari, jahon urushi tufayli quloq qilingan vatandoshlarimizning ayanchli taqdiri yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar

Sovet hokimiyati, lager, qamoqxona, mahbuslar, xalq, shoir, yozuvchilar,

Аннотация

В данной статье освещаются реальные события, описанные в автобиографическом произведении Шукрулло Юсупова «Кафансиз кумилганлар», пытки заключенных в тюрьмах и лагерях, ужасные испытания войны, вошедшие в историю благодаря своим страданиям, и печальная судьба наших соотечественников, замолкших перед лицом мировой войны.

Ключевые слова

Советская власть, лагерь, тюрьма, заключенные, люди, поэты, писатели.

Annotation

This article sheds light on the reality of the events that took place in Shukrullo Yusupov's autobiographical work „Kafansiz ko‘milganlar’’, the torture of prisoners in prisons and camps, the terrible trials of the war, which became famous in history through its suffering, and the sad fate of our compatriots who were silenced by the world war.

Keywords

Soviet power, camp, prison, prisoners, people, poets, writers.

Kirish

Shukrullo Yusuf qalamiga mansub „Kafansiz ko‘milganlar“ nomli avtobiografik roman 1951-1989-yillarda yozilgan bo‘lsa-da ma’lum sabablarga ko‘ra, chiqishi kechikadi. Nihoyat, 1991-yil mustaqillik sharofati bilan nashr qilingan, xotira asari o‘zida jahon urushining daxshati, qatag‘on siyosatida va sho‘rolar tizimida ro‘y bergan voqealarni jonlantiradi. Aynan urush mafkurasi sababli turli asossiz ayblovlar bilan Shukrullo singari ko‘plab vatandoshlarimizning qamaldagi taqdiri ayanchli bo‘lsada tan olinishi istalmagan haqiqat edi. 1922-1953 yillar oralig‘ida, NKVD tomonidan millionlab insonlar nohaq qatag‘on qilingan, qamoqqa tiqilgan va o‘ldirib yuborilgan. Sovet Ittifoqida, jumladan, O‘zbekistonda quloqlashtirish 1928-1932-yillarda boshlangan bo‘lsada, asosiy jarayonlar: 1929-1930-yillar ommaviy quloqlashtirish avjiga chiqdi va 1933-yilga kelib siyosat amalga oshirib bo‘linganligiga qaramay 1934-1937 yillarda ham davom etgan. O‘zbekistonda, 1930-yilda 40 mingga yaqin xo‘jalik quloq sifatida nishonga

olingan. Aynan shu vaziyat avj olgan pallada 1921-yilning sentabr oyida Shukrullo Yusupov dunyoga keladi, ko‘plab insonlarga malomat toshlari otilganligini va nohaq tuxmatlarga qolganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib ulg‘ayadi. Ziyoliy oilaning farzandi bo‘lganligi sababli tahsil ko‘radi va turli joylarda faoliyat yuritadi. 1951-yil davlat nashriyotida ishlab yurgan kezlarida millatchilik va savetlarga qarshi targ‘ibotchilikda ayblanib, 25 yil qamoq jazosiga hukum qilinadi. 25 yil bu so‘zni aytish og‘izga oson, lekin sizningcha, bir go‘dak dunyoga kelib voyaga yetishdek sharafga muvaffaq bo‘lishi uchun bu vaqt yetarli to‘g‘rimi biroq, bu jarayon qamoq va lagerdagi aqlga sig‘mas voqealarni boshdan o‘tkazayotgan odam uchun bu yilning bir kuni ham juda og‘ir.

Roman tahlili

Asarda o‘sha davrda xalq dushmani sifatida qaralgan Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Cho‘lpon, Fitrat, Hamid Sulaymonov, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliy aka-uka Alimardonovlar, Fayzullo Xo‘jayev, Akbar Ikromov kabi buyuk shaxslar nomi uchraydi. Afsuski, ular singari Shukrullo ham siquvga olingan edi. Ularning har bir yaratgan ijod namunalari va olib borgan ishlarida SSSR siyosatiga qarshilik g‘oyalari ilgari surilgan deya ayblov qo‘yilgan. Xotira asarida, muallif shunday yozadi: 1951-yilda nashriyotda muharrir bo‘lib ishlayotgan kezlarimda bir notanish odam qo‘ng‘iroq qilib, muhlisim ekanligini, va uchrashish istagi borligini aytadi, unga rad javobini berishimga qaramay hozir borishini aytib go‘shakni qo‘ydi. Biroz muddatdan so‘ng, xodimlardan biri tashkilot yonida kimdir meni kutib turganini aytdi, uning yoniga chiqqanimda noma'lum kimsa o‘zini vayenkomatdanman deya tanishtirib harbiy hujjatim bor-yo‘qligini so‘radi. Shunda men hujjatlarni doim yonimda olib yurmasligini bildirdim, shunga ham qanoatlanmagan kimsa hujjat bahonasida men bilan uyimgacha bordi va uyda tintuv o‘tkazishni boshladi, qurol-yarog‘, taqiqlangan adabiyotlar bor-yo‘qligini ko‘zdan kechirishdi va hech bir shubhali manba topa olishmasada meni o‘zlari bilan olib ketishdi. Shu yerda meni oila davrasida o‘tagan baxtli kunlarimga nuqta qo‘yildi, deydi shoirning o‘zi.[6;7] Avval, Shukrullo Yusupovni KGZ qamoqxonasiga olib borishib uning qo‘liga ism-sharifidan boshqa qolgan barcha gaplari uydirma asosida qurilgan tarjimayi holni tutqazishadi. Unda avlod-ajdodi bilan sovetlarga dushman, degan tavqi la’nat yaqqol yozilgan edi. Undan so‘ng tergav qilinadi, qayta-qayta so‘roqdan so‘ng 25 yil qamoq jazosi, besh yil surgun, besh yil saylash va saylanish huquqidan mahrum etiladi. Qamoqxonadagi ayanchli holatni rosti tasvirlashga insonni jur’ati yetmaydi, irodasi ko‘tarmaydi. Yozda o‘ta issiq, qishda kuchli sovuq bo‘lgan, 4 kishilik kameraga 10 kishini saqlashlari oylab, yillab yuvinmagan insonlar hidi, yetmagandek soat kechki o‘n birdan keyin to‘kilmaydigan tuvakning badbo‘yi mahkumlarni qiynashning yana bir usuli edi, desa xato bo‘lmaydi. Bundan tashqari, insonni qiynoqqa soladigan jihati shundaki, ona yurt sog‘inchi yetmagandek, lagerdagi og‘ir, mashaqqatli, tinimsiz mehnatdan tinka madori qurib, jon taslim qilgan chorasizlarga kafan ham nasib etmaganligi ayanchli. Chunki o‘n bir oy qish hukmronlik qilgan. Sibir sovug‘ida o‘n to‘rt soatlab tinimsiz ishlash natijasida halok bo‘lgan insonlarni kim ardoqlab ko‘madi deysiz, shunchaki qo‘llariga taxta bog‘lab yarim-yalong‘och holda o‘raga ko‘mishar edi. Ulardan na nom-nishon na to‘rt satrlik xotira bor. Boisi ular yaqinlariga bir yilda faqat bir marotaba xat yo‘llash imkoni bor edi, xat uydagilarga yo yetib borardi yoki qayerlardadir qolib ketardi. Lagerga borilganining birinchi kuniyoq har bir odamni qo‘lidan qanday ish kelishiga qarab ish taqsimlashardi, shunda Shukrulloning chekiga aravada tosh tashish tushadi, tabiatan og‘ir mehnat qilmaganidanmi yoki tutqunlikda zindon zaxida ancha nimjon bo‘lib qolganidanmi bilmadim, adib sog‘ligidagi muammo sabab ancha ozor chekadi. Qish bo‘yi qonini kana surar, bir necha haftalik iliq kunlarda bo‘lsa botqoqzorning chivinlari talab odamni uxlatmasdi. Ularni yo‘qotish uchun oltin gugurt tutatsang achchiq sassig‘i oylab ko‘rpa-tushakdan ketmasdi, deraza ochsang tashqarida kuchli bo‘ron hukum surardi. Nima qilishga qanday bu do‘zaxdan qutilishga chora izlaysan biroq birdan bir chora baxtli kunlarni kutib yashash edi. Nihoyat Stalin o‘ldi. Yurakdagi yillar mobaynida ko‘milib yotgan, alamzadalikka yakun qo‘yiladigan bo‘ldi. Tutqunlardan sekin-astalik bilan cheklovlar olib tashlana boshlandi.

Eng quvonarlisi shundaki, bir guruh yurtdoshlarimiz qatorida Shukrulloga qo‘yilgan ayblov ham olib tashlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shukrullo „Kafansiz ko‘milganlar’’ Toshkent. 2020-yil (6-7-betlar)
2. Kun.uz.
3. Aniq.uz.